

BOLALARDA IKKI TILLILIKNI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK ASOSLARI**Mirkasimova Zilola Alisherovna**

MTTDMQTMOI tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7439753>

Annotatsiya. Til bilgan el biladi naqli bugungi kunda o'z tasdig'ini topib ulgurdi. Horijiy tillarni aynan maktabgacha davrdan boshlab o'zlashtirilayotgani bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ona-otalar o'z farzandlarini maktabgacha yoshdan boshlab tillarga jalb etish kerakligini asta-sekin tushunib borishmoqda. Bugungi kunda maktabgacha yosh bolalarining ikki tilni parallel o'zlashtirayotgani, ularning aqliy rivoji yo'lidagi vositalardan biri ekani o'z isbotini topdi. Mazkur maqola ikki tillilikni shakllantirish borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, ularning rivojlanish bosqichlari kabi masalalarni o'z ichiga olgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha yosh, bolalar, ikki tillilik, psixolingvistika.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ДВУЯЗЫЧИЯ У ДЕТЕЙ

Аннотация. Поговорка «Кто знает язык, тот знает народ» нашла свое подтверждение и сегодня. Ярким примером тому является тот факт, что иностранные языки осваиваются прямо с дошкольного возраста. Родители постепенно понимают, что привлекать детей к языкам необходимо с дошкольного возраста. На сегодняшний день доказано, что дошкольники параллельно изучают два языка, это один из инструментов их умственного развития. В данную статью включены такие вопросы, как научные исследования становления двуязычия и этапы его развития.

Ключевые слова: дошкольный возраст, дети, двуязычие, психолингвистика.

DIDACTIC FOUNDATIONS FOR THE FORMATION OF BILINGUALISM IN CHILDREN

Abstract. The proverb "Who knows the language knows the people" has found its confirmation today. A striking example of this is the fact that foreign languages are mastered right from preschool age. Parents gradually understand that it is necessary to involve children in languages from preschool age. To date, it has been proven that preschoolers learn two languages in parallel, this is one of the tools for their mental development. This article includes such issues as scientific research on the formation of bilingualism and the stages of its development.

Keywords: preschool age, children, bilingualism, psycholinguistics.

Bilingvizm atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, «bi-kki va lingua-til» ya'ni ikki tilda gapirish va tushunish qobiliyati nazarda tutiladi. Biroq shu kunga qadar olib borilgan tadqiqotlarda bilingvizmning bolaning bilish kompetensiyasi rivojiga bo'lgan ta'sirini turlicha talqin qilingan.

Bilingvallik (ikki tillilik) bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tarixiga nazar solsak, jumladan 1920-1930 yillarda olib borilgan tadqiqotlar bilingv (ikki tilli) bolalarining aqliy hamda nutqiy rivojlanishi, monolingv (yakka tilli) bolalarnikiga qaraganda ancha orqada degan fikrlar ilgari surgan. Saer D. J tadqiqotlarida bilingvizm kichik yoshdagi bolalarining aqliy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ularni tillar muloqotida chalkashtiradi degan hulosani bergan.

1940 yilga kelib bir qator olimlar bilingv bolalarining aqliy rivojlanishi hamda bilish darajasi monolingv bolalarniki bilan teng ekanini tasdiqladilar.

Bilingvallikni maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga ijobiy ta'siri katta ekanligi ilk marotaba 1962 yilda Kanadaning York universiteti professori, psixolog ellen Bialistik maqolasida bayon qilingan edi. Elizabet Pill va Uolles Lambert Monrealda ingliz va fransuz tillarida so'zlashuvchi bilingv bolalar hamda faqatgina fransuz tilida so'zlashuvchi monolingv bolalarni taqqoslagan holda o'tkazgan tadqiqoti, bilingv bolalarning bilish darajasi monolingvlarnikiga qaraganda ancha yuqori ekanini qayd etib o'tgan.

Psixolingvistika bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar haqiqiy ikki tillilik faqat odam xech bo'lmaganda bitta tilda har qanday fikrni mos tarzda ifodalashga qodir bo'lgan taqdirdagina rivojlanadi. Agarda nutq bironta tilda ham to'laonli shakllanmagan bo'lsa, bu holda fikr tuzilmasi buzilib ketadi va o'z fikrini ifodalashga bo'lgan intilish muvaffaqiyatsizlikka uchraydi, bu esa nafaqat psixologik ezilishlarga, balki muloqot sifatidagi chuqur yo'qotishlarga va inson shaxsiga ziyon etishiga olib keladi. Yarim tillilik deb ataladigan bunday hodisa, umuman olganda, jamiyat uchun ham ancha xavflidir, chunki bunda uning a'zolarining muayyan qismi xissiyotlarini, ehtiyojlari, istak-xohishlarini tegishli tarzda so'z shakliga keltira olmaydi. Agarda inson xohlagan narsasini ayta olmasa, u boshqalar bilan teng ravishda raqobatlashishga kommunikatsiyaning odatdagi shakllaridan foydalanishga qodir bo'lmay qoladi hamda u o'z-o'zini boshqarishni qandaydir boshqa shakllariga murojaat qilishga, ba'zan esa zo'ravonlik qilish, kuch ishlatishga majbur bo'ladi. SHundan kelib chiqqan holda, ilk yoshdan boshlab individning nutqiy rivojlanishini tuzatishni to'g'ri tashkil etish zarur. "Ilk start"ona tilini qabul qilishga va keyinchalik har qanday boshqa tilni o'zlashtirib olishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi". Til qanchalik oldin egallab olinsa, bilimlar ham shunchalik oson va to'liqroq o'zlashtiriladi.

REFERENCES

1. Saer D. J. The Effects of Bilingualism on Intelligence [Text] / D.J. Saer// British Journal of Psychology. -1923.-No.14.
2. Pinter, R. The relation of bilingualism to verbal intelligence and school adjustment [Text] / R. Pinter, S. Arsenian // Journal of Education Research. -1937. – No.31.
3. D.R.Babaeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. Darslik.-T.: "Barkamol fayz media",2018.
4. Jinkin N.I. Механизмы речи. – М. А